Milliy arxeologiya markazi tomonidan olib borilayotgan arxeologik tadqiqotlarga bag’ishlangan brifing o’tkazildi

Bugun, Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida Fanlar akademiyasi Milliy arxeologiya markazi tomonidan joriy yilning 1-yarim yilligida olib borilgan ilmiy izlanishlarga bag’ishlangan brifing o’tkazildi.

Markaz tomonidan jami 10 dan ortiq arxeologik obyektda izlanishlar olib borilib, qo’lga kiritilgan ma’lumotlar tariximizni yangi sahifalar bilan boyitdi.

Jumladan, Surxondaryo viloyati, Sherobod tumani Xatak qishlog’i yaqinida olib borilgan izlanishlar natijasida qadimgi tosh davriga oid g’or-makon aniqlandi. G’or-makon 100-60 ming yil oldin, ya’ni, neandertal odami yashagan davrga tegishliligi aniqlandi. Topilmalar orasida tosh qurollar, yovvoyi hayvonlarning maydalangan suyaklari va o’choq qoldiqlari mavjud.

Shuningdek, G’oz qishlog’i atrofida Oqtosh tog’i hududida cho’kichlab ishlangan bir o’rkachli tuyaning qoyatosh tasviri, shu bilan birga bu hududdan mezolit davriga oid yodgorlik aniqlanib, ko’plab toshdan yasalgan buyumlar topildi.

O’zbekiston-AQSh qo’shma ekspeditsiyasi tomonidan Buxoro Shahristonida olib borilgan qazishma ishlari natijasida ilk o’rta asrlarga oid yana bir shahar aniqlandi.

Mazkur ekspeditsiya tomonidan Jizzax viloyati Zomin tumani To’g’onbuloq yodgorligida ilk arxeologik tadqiqotlar olib borildi va Qoraxoniylar davriga oid ko’chmanchilar shaharchasi aniqlandi.

O’zbekiston-Fransiya qo’shma ekspeditsiyasi tomonidan Janubiy Nurota tog’ tizmasi G’o’bdintog’ va Qaroqchitog’ hududlarida yigirmadan ortiq arxeologik topilma joylar tizimli ravishda o’rganildi, ular orasida bronza davridan o’rta asrlar davriga doir 145 dan ziyod noyob qoyatosh rasmlari namunalari topildi.

Axsikent arxeologik ekspeditsiyasi tomonidan Axsikentdagi qazuv ishlari davomida Qoraxoniylar davriga oid turar joy qoldiqlari va ko’plab sopol buyumlar, tangalar va temir buyumlari aniqlandi.

Andijon viloyati Qo’rg’ontepa tumani Xonabod shahri tog’ yon bag’rilaridagi Xonabod 1-2 yodgorliklaridagi qabr qo’rg’onlarida qazuv ishlari olib borilib, miloddan avvalgi VI-IV asrlarga oid moddiy madaniyat buyumlari, jumladan, qabr-qo’rg’onlar, taqinchoqlar, sopol buyumlar, temir buyumlar aniqlandi.

Farg’ona viloyati Qo’qon shahri markazidagi Tepaqo’rg’on arxeologik yodgorligida tadqiqotlar olib borilib, qadimiy shaharning janubi-sharqiy qismida yarim aylana ko’rinishidagi burj va 2 qatorli mudofaa devori mavjudligi, shuningdek, shimoliy tomonda 7 metr balandlikda saqlangan mudofaa devori aniqlandi.

Qoraqalpog’iston Respublikasi Beruniy tumanidagi Oqshaxon-qal’a yodgorligida qazuv ishlari olib borilib, qal’aga kirish darvoza oldi labirint qismi o’rganilmoqda.

Toshkent viloyati Ohangaron tumani Suyurlitepa yodgorligi va uning atrof hududlarida statsionar qazishma ishlari olib borilib, mudofaa inshooti aniqlandi. Shuningdek, Suyurlitepa shahar qismidagi ichki yo’llar tizimi, shaharning rabod qismida Qovunchi II madaniyatiga oid 3 ta mozor-qo’rg’on aniqlandi. Suyurlitepaning janubiy qismida ilk o’rta asrlarga oid qishloq jamoasi manzilgohi ochib o’rganildi.

O’zbek-Rossiya qo’shma ekspeditsiyasi tomonidan Farg’ona, Namangan va Andijon viloyatlari hududida, Markaziy Farg’ona cho’llarida qadimgi tosh davri – neolit jamoalari tomonidan qoldirilgan topilma joylar o’rganilib, Ulug’nor, Sho’rko’l kabi qadimgi ko’llar hududida neolit davri qurollari aniqlandi.

Hozirda mutaxassislar tomonidan arxeologik tadqiqotlar davom ettirilmoqda.